



Nilufar O'RINOVA,

Farg'ona davlat universiteti Pedagogika kafedrasi professori, p.f.n

E-mail: urinova.nm@mail.ru

P.f.d M.Boltayeva taqrizi asosida

IMPROVING THE SYSTEM OF PREPARING FOR TUTORIAL ACTIVITY BASED ON THE PRINCIPLES OF METACOGNITIVE COMPETENCE

Annotation

This article highlights the theoretical, methodological, and practical foundations for improving the system of preparing future teachers for tutoring activities based on the principles of metacognitive competence. The essence of the concept of metacognitive competence, its role in the educational process, and its conceptual significance in the teacher preparation system are scientifically analyzed. The main functions of tutoring activity – supporting personal development, fostering reflection, and developing self-assessment skills – are discussed in detail within the framework of the metacognitive approach. The research results demonstrate that developing metacognitive competence in the educational process enhances the effectiveness of tutoring, enabling students to develop self-control, analytical, and evaluative thinking skills. The ideas presented in the article serve as a methodological foundation for developing reflective, independent, and innovative pedagogical thinking among future teachers, creating personalized learning strategies, and forming a competence-based approach aimed at self-development.

Key words: Tutoring activity, metacognitive competence, reflection, self-regulation, pedagogical training, metacognitive strategies, teacher preparation system.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ ПОДГОТОВКИ К ТЬЮТОРСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ ПРИНЦИПОВ МЕТАКОГНИТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ

Аннотация

В данной статье раскрыты теоретические, методологические и практические основы совершенствования системы подготовки будущих учителей к тьюторской деятельности на основе принципов метакогнитивной компетентности. Научно проанализированы сущность понятия «метакогнитивная компетентность», его место в образовательном процессе, а также концептуальная роль в системе профессиональной подготовки будущих педагогов. Подробно описаны основные функции тьюторской деятельности – поддержка личностного развития, формирование навыков рефлексии и самооценки в контексте метакогнитивного подхода. Результаты исследования показывают, что развитие метакогнитивной компетентности в образовательном процессе способствует повышению эффективности тьюторской деятельности, формированию у студентов навыков самоконтроля, анализа и оценки собственных мыслительных действий. Представленные в статье идеи служат методологической основой для развития рефлексивного, самостоятельного и инновационного педагогического мышления будущих учителей, выработки индивидуальных учебных стратегий и формирования компетентностного подхода, направленного на саморазвитие.

Ключевые слова: Тьюторская деятельность, метакогнитивная компетентность, рефлексия, саморегуляция, педагогическая подготовка, метакогнитивные стратегии, система подготовки учителей.

TYUTORLIK FAOLIYATIGA TAYYORLASH TIZIMINI METAKOGNITIV KOMPETENSIYA TAMOYILLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash tizimini metakognitiv kompetensiya tamoyillari asosida takomillashtirishning nazariy, metodologik va amaliy asoslari yoritilgan va metakognitiv kompetensiya tushunchasining mohiyati, uning o'quv jarayonidagi o'rni, shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash tizimida tutgan konseptual o'rni ilmiy tahlil qilingan. Tyutorlik faoliyatining asosiy funksiyalari – shaxsiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash, refleksiya va o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini shakllantirish jarayonlari metakognitiv yondashuv batafsil bayon etilgan. Tadqiqot natijalari ta'lim jarayonida metakognitiv kompetensiyani rivojlantirish orqali tyutorlik faoliyatining samaradorligini oshirish, talabalarning o'quv faoliyatida o'zini o'zi nazorat qilish, o'z fikrini tahlil qilish va baholash ko'nikmalarini shakllantirish imkonini berishini ko'rsatadi. Maqolada ilgari surilgan g'oyalar bo'lajak o'qituvchilarning refleksiv, mustaqil va innovatsion pedagogik fikrlashini rivojlantirish, shaxsiy o'quv strategiyalarini ishlab chiqish hamda o'z-o'zini rivojlantirishga yo'naltirilgan kompetent yondashuvni shakllantirishda metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Tyutorlik faoliyati, metakognitiv kompetensiya, refleksiya, o'z-o'zini boshqarish, pedagogik tayyorlov, metakognitiv strategiyalar, o'qituvchi tayyorlash tizimi.

Kirish. Globalizatsiya, raqamli transformatsiya va bilimlar iqtisodiyoti sharoitida o'qituvchining roli an'anaviy bilim uzatuvchidan shaxsiy rivojlanish jarayonini boshqaruvchi va yo'naltiruvchi tyutorga aylanmoqda. Shu bois, ta'lim tizimida o'qituvchining tyutorlik faoliyati kompetensiyalarini

shakllantirish masalasi bugungi kunda dolzarb pedagogik muammolardan biri sifatida e'tirof etiladi. Zamonaviy ta'limda tyutorlik faoliyati shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillarini amalga oshirish, talabalarning o'z-o'zini rivojlantirishini rag'batlantirish, mustaqil o'quv faoliyatini boshqarish va

refleksiv fikrlashni shakllantirish bilan chambarchas bog'liqdir. Tyutorlik yondashuvi talabani ta'lim jarayonidagi faol sub'ekt sifatidagi rolini kuchaytiradi, uni o'z o'qish strategiyasini rejalashtirish, baholash va tahlil qilishga o'rgatadi. Shu nuqtai nazardan, metakognitiv kompetensiya tyutorlik faoliyatining asosiy metodologik tayanchi sifatida qaraladi. Metakognitiv kompetensiya — bu shaxsning o'z fikrlash jarayonini kuzatish, boshqarish va baholash qobiliyatini bildiradi. U o'qituvchi va talaba faoliyatida refleksiya, o'z-o'zini baholash, mustaqil qaror qabul qilish jarayonlarini ta'minlaydi. Afsuski, hozirgi ta'lim amaliyotida bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashda metakognitiv yondashuv yetarli darajada tizimlashtirilmagan. O'quv dasturlarida tyutorlik kompetensiyalarining shakllanishi ko'proq nazariy yo'nalishda olib borilib, metakognitiv refleksiya, o'z-o'zini boshqarish va individual ta'lim traektoriyalarini loyihalash jarayonlariga kam e'tibor qaratilmoqda. Bu esa o'qituvchi tayyorlash tizimida innovatsion metodologik yechimlar ishlab chiqishni taqozo etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tyutorlik faoliyatining shakllanishi va rivojlanishi zamonaviy pedagogika fani evolyutsiyasining muhim bosqichlaridan biridir. Tyutorlik faoliyatining nazariy asoslari ingliz pedagogikasida shakllanib, uni dastlab J.Locke va J. Deweylarning shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim haqidagi qarashlari tayyorlagan. Ularning fikricha, o'qituvchi talabani tayyor bilimlarni o'zlashtiruvchisi emas, balki bilim hosil qilish jarayonining faol yo'l boshchisi bo'lishi lozim. Keyinchalik bu g'oyalar tyutorlik konsepsiyasining shakllanishiga ilmiy zamin yaratdi.

Metakognitiv kompetensiya tushunchasi dastlab J.Flavell tomonidan kiritilgan bo'lib, u metakognitsiyani shaxsning o'z fikrlash jarayonini nazorat qilish va boshqarish qobiliyati sifatida talqin qilgan. Flavell modeliga ko'ra, metakognitsiya ikkita asosiy komponentni o'z ichiga oladi: metakognitiv bilim (bilimning mohiyati va uni qo'llash haqidagi tushuncha) hamda metakognitiv monitoring (o'z fikrlash jarayonini kuzatish va baholash). Ushbu komponentlar pedagogik faoliyatda o'qituvchining refleksiv tayyorgarligini belgilaydi. Talaba tyutor bilan mashg'ulotlarga tayyorlanish va ularda ishtirok etish jarayonida savollarni shakllantirish, oldiga maqsadlar qo'yish, esse yoki boshqa yozma ishlarni tayyorlash jarayonida o'qish va tafakkur qilishni o'rganishi kerak. Shubhasiz, tafakkurni rivojlantirish uchun eng samarali imkoniyatlar aynan tyutorial mashg'ulotlar chog'ida, metakognitiv texnologiyalarni qo'llagan holda yuzaga keladi. Yuqorida qayd etilganidek, metakognitiv yondashuv tyutorlik faoliyatining konseptual asoslaridan biridir [1].

Xorijiy tadqiqotchilar orasida Stephanie McKendry, Rachael Field va Duaa Al Maani kabi olimlar tyutorlik faoliyatini metakognitiv kompetensiyalar bilan bog'liq holda o'rganishgan. McKendry o'z ishlarida metakognitiv strategiyalar talabalarning refleksiya, o'z-o'zini tahlil qilish va o'qish jarayonini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishda markaziy o'rin tutishini asoslab bergan. Field esa metakognitiv yondashuv ta'lim jarayonining ichki boshqaruv mexanizmini kuchaytirishini, shaxsiy o'quv mas'uliyatini shakllantirishini ko'rsatadi [5].

Shuningdek, Zimmerman tomonidan ilgari surilgan o'z-o'zini boshqaruvchi o'qish nazariyasi metakognitiv kompetensiyaning faoliyatga asoslangan modelini yaratgan. Unga ko'ra, ta'lim jarayonida o'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqot, refleksiya va o'z-o'zini baholash metakognitiv jarayonlarning faollashuviga olib keladi. Bu esa tyutorlik faoliyatining mazmuni bilan bevosita uyg'unlashadi [6].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning metodologik asosini shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim, faoliyatga asoslangan yondashuv, metakognitiv nazariya hamda refleksiv pedagogika konsepsiyalari tashkil etadi. Tadqiqot metodologik nuqtai nazardan bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash jarayonida metakognitiv kompetensiyani shakllantirishni tizimli yondashuv asosida tahlil qilishga yo'naltirilgan. Metodologik tayanch sifatida J. Flavellning metakognitiv modeliga, Zimmermanning o'z-o'zini boshqaruvchi o'qish nazariyasiga, Kolbning tajriba asosida o'rganish sikliga, hamda Schönning refleksiv amaliyot konsepsiyasiga tayanildi. Ushbu nazariy asoslar tyutorlik faoliyatida metakognitiv jarayonlarni — kuzatish, tahlil qilish, baholash va boshqarish mexanizmlarini o'rganish uchun ilmiy zamin yaratadi.

Metakognitiv bilim insonni o'z qiziqishlari, qobiliyatlari va maqsadlariga asoslangan holda muayyan kognitiv faoliyatni boshlashga yoki to'xtatishga undashi mumkin.

Flavell bu bilimni uchta omil doirasida ko'rib chiqadi:

Shaxsiga oid o'zgaruvchilar haqidagi bilim — bu odamning qanday o'rganishi va axborotni qanday qayta ishlashi haqida umumiy bilimni o'z ichiga oladi, shuningdek, o'zining o'rganish jarayoni haqida shaxsiy bilimga ham taalluqlidir. Masalan, talaba darslarga tinch kutubxonada tayyorlansa, bu u yda (chalgituvchi omillar ko'p bo'lgan muhitda) tayyorlanganiga nisbatan samaraliroq bo'lishini biladi.

Shaxsiga oid o'zgaruvchilar haqidagi bilim — bu vazifaning tabiati va undan talab qilinadigan axborotni qayta ishlash xususiyatlari haqidagi bilimdir. Masalan, talaba ilmiy matnni o'qish va tushunish ko'proq vaqt talab qilishini, badiiy roman bilan esa bu jarayon tezroq kechishini biladi.

Strategiyaga oid o'zgaruvchilar haqidagi bilim — bu kognitiv va metakognitiv strategiyalar haqida, shuningdek, ularni qachon va qayerda samarali qo'llash mumkinligi haqidagi shartli bilimdir.

Metakognitiv tajriba — bu metakognitiv yondashuvning ikkinchi toifasi bo'lib, u insonning o'zining metakognitiv bilimlari, maqsadlari yoki strategiyalariga bo'lgan sub'ektiv ichki javoblarini o'z ichiga oladi. Bu tajriba tezda yoki uzoq davom etishi, kognitiv faoliyatdan oldin, uning davomida yoki undan so'ng yuzaga kelishi mumkin.

Metakognitiv tajriba, shuningdek, metakognitiv strategiyalardan yoki metakognitiv boshqaruv (regulyatsiya)dan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Metakognitiv maqsadlar va topshiriqlar — bu kognitiv faoliyatdan kutilayotgan natijalarni bildiradi. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

tushunishni chuqurlashtirish,
ma'lumotni xotirada saqlab qolish,
yozma hujjat tayyorlash,
ma'lum bir savolga javob berish,
yoki shunchaki biror mavzu bo'yicha bilimni chuqurlashtirish.

Bu maqsadlarga erishish uchun ham metakognitiv bilim, ham metakognitiv tajriba zarur bo'lib, ular faoliyatni muvaffaqiyatli bajarish uchun birgalikda ishlaydi.

Metakognitiv strategiyalar — bu kognitiv faoliyatni nazorat qilish va belgilangan kognitiv maqsadga (masalan, matnni tushunish) erishilganligiga ishonch hosil qilish uchun qo'llaniladigan ketma-ket jarayonlardir. Ushbu strategiyalar o'qish jarayonini tartibga solish va kuzatishga yordam beradi. Ular kognitiv faoliyatni rejalashtirish, nazorat qilish va natijalarni baholash bosqichlarini o'z ichiga oladi [5].

Tahlil va natijalar. Hozirgi globallashtirish sharoitida barcha sohalarining tayanchi, fundamenti — ta'limga borib taqaladi. Chunki aynan ta'lim dargohlaridan jamiyat uchun

kerakli va uni boshqaradigan yetuk mutaxassislar yetishib chiqmoqda. Shu jihatdan, zamon talablariga mos, irodali, har tomonlama mulohazali, manfaatları bunyodkorlik g'oyasiga qaratilgan yosh kadrlarni tarbiyalash bugungi kun ta'lim muassasalari oldida turgan dolzarb vazifalardan sanaladi.

Bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash hamda bu jarayonda metakognitiv kompetensiyadan foydalanish haqida yoilgan ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, tyutorlik faoliyati va metakognitiv kompetensiya o'rtasidagi integrativ aloqadorlik hali to'liq o'rganilmagan. Xususan, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida metakognitiv strategiyalarni tizimli qo'llash mexanizmlari, ularni o'quv dasturlariga integratsiya qilish, natijalarni baholashning ilmiy asoslari yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Shuningdek, hozirgi adabiyotlarda metakognitiv kompetensiyani rivojlantirish asosan talabalarning o'quv strategiyalarini shakllantirish bilan bog'lanadi, ammo tyutorlik faoliyatining o'ziga xos komponentlari – refleksiya, o'z-o'zini boshqarish, diagnostika, konsalting kabi yo'nalishlarda bu yondashuvni qo'llash masalalari kam yoritilgan.

Metakognitiv kompetensiya tamoyillarini tyutorlik faoliyatiga tayyorlash tizimiga integratsiya qilish orqali quyidagi o'zgarishlar kuzatiladi: [6]

Talabalar o'z o'quv faoliyatini rejalashtirishda yuqori darajadagi mustaqillik va mas'uliyat namoyon eta boshladilar.

O'z fikrini tahlil qilish, refleksiya yozish, baholash jarayonlari orqali metakognitiv fikrlash faol ravishda rivojlandi.

Tyutorlik faoliyatiga oid topshiriqlarda individual ta'lim traektoriyasini loyihalash va shaxsiy rivojlanish xaritasini tuzish ko'nikmalari aniq shakllandi.

Talabalar "men qanday o'qiyapman?", "men o'z o'rganish jarayonimni qanday baholayapman?" kabi metakognitiv savollar yordamida o'z faoliyatini boshqarish qobiliyatini mustahkamladi.

Metakognitiv kompetensiyani rivojlantirish tyutorlik faoliyatini tashkil etish jarayonida talaba subyekting o'z fikrlashini anglash, boshqarish va nazorat qilish mexanizmlarini faollashtiradi. Shu jihatdan, metakognitiv yondashuvning asosiy maqsadi – o'rganish jarayonini o'zlashtirish emas, balki o'rganishni o'rganish tamoyilini amaliyotga tatbiq etishdir.

Bo'lajak o'qituvchilarda bu yondashuv quyidagi metodik bosqichlarda amalga oshiriladi:

Metakognitiv xabardorlikni shakllantirish bosqichi – talabaning o'z bilish jarayonlari, o'rganish odatlari va fikrlash uslublari haqida o'ylashga o'rgatish.

Metakognitiv monitoring bosqichi – o'qish jarayonida o'z strategiyalarini kuzatish, tahlil qilish, xatolarni aniqlash va to'g'rilashni o'z ichiga oladi.

Metakognitiv nazorat bosqichi – o'rganish samaradorligini baholash, o'z faoliyatini mustaqil ravishda yo'naltirish, maqsadlarni aniqlash va reflektiv fikrlashni rivojlantirish bosqichidir

Shuningdek, metakognitiv kompetensiyani tyutorlik jarayoniga integratsiya qilishda ta'lim muhitini o'zgartirish muhim omildir. Bu muhitda o'qituvchi va talaba o'rtasida hamkorlik, o'zaro ishonch, ochiq refleksiya mavjud bo'lishi kerak. Shu asosda talabalar o'z o'quv faoliyatini nafaqat tashqi baholash mezonlariga ko'ra, balki ichki o'zini anglash mezonlari asosida baholashni o'rganadilar.

Xulosa vatakliflar. Bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash tizimini metakognitiv kompetensiya tamoyillari asosida takomillashtirish — bu nafaqat ta'lim jarayonining metodik yangilanishini, balki pedagogik tafakkurning yangi bosqichga ko'tarilishini ta'minlaydigan muhim ilmiy yo'nalishdir. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, metakognitiv kompetensiya o'qituvchining o'z bilish jarayonini anglash, boshqarish va baholash qobiliyatlarini rivojlantiradi, bu esa tyutorlik faoliyatining asosiy komponentlari – refleksiya, konsalting, shaxsiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash va individual ta'lim traektoriyasini loyihalash bilan bevosita uyg'unlashadi.

Metakognitiv kompetensiyaning asosiy tamoyillari — o'z fikrlash jarayonini tahlil qilish, o'rganishni rejalashtirish, faoliyatni kuzatish va baholash — tyutorlik tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu yondashuv bo'lajak o'qituvchilarda mustaqil fikrlash, o'zini o'zi boshqarish, reflektiv tahlil qilish, shuningdek, individual o'qish strategiyalarini ishlab chiqish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, tyutorlik faoliyatida metakognitiv yondashuvni qo'llash orqali o'qituvchi o'z kasbiy rivojlanishini boshqaruvchi, reflektiv va innovatsion pedagogik tafakkurga ega mutaxassisga aylanadi. Shu asosda ta'lim jarayonining samaradorligi, talabalarning o'zini o'zi rivojlantirish qobiliyati hamda mustaqil o'qish kompetensiyasi sezilarli darajada oshadi. Bu yondashuv o'qituvchi shaxsini nafaqat bilim beruvchi, balki o'z va boshqalarning fikrlash jarayonini anglay oluvchi, uni rivojlantiruvchi intellektual lider sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Flavell, J. H. (1979). Metacognition and Cognitive Monitoring: A New Area of Cognitive-Developmental Inquiry. *American Psychologist*, 34(10), 906–911.
2. Schraw, G., & Dennison, R. S. (1994). Assessing Metacognitive Awareness. *Contemporary Educational Psychology*, 19(4), 460–475.
3. McKendry, S. (2018). Developing Student Metacognitive Skills through Reflective Practice in Higher Education. *Teaching in Higher Education*, 23(4), 509–523.
4. Field, R. (2020). Tutor as Metacognitive Coach: Enhancing Students' Self-Regulated Learning in Higher Education. *Journal of Learning Development*, 7(2), 45–58.
5. Duaa Al Maani (2021). Metacognitive Competence and Teacher Professional Development: A Conceptual Framework. *International Journal of Educational Research*, 110, 101894.
6. Zimmerman, B. J. (2002). Becoming a Self-Regulated Learner: An Overview. *Theory Into Practice*, 41(2), 64–70.
7. Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (Eds.). (2001). *A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives*. New York: Longman.
8. Фурсенко, А. П. (2019). Тьюторство в профессиональной подготовке педагогов: теория и практика. Москва: Академия педагогических наук.